

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, Xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.


Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Hukumatning bu borada so'nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar 2020-yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 221,8 mln. AQSh dollariga yetishini va 2019-yilning shu davriga nisbatan 12,9 mln. AQSh dollariga yoki 5,5 % ga kamaydi.

SIRDARYO
VILOYATINIG
TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(mln. AQSh
dollar)



TSAda eksport hajmi 52,2 mln. AQSh dollariga (minus 3,0 %) va import hajmi 169,6 mln. AQSh dollariga (minus 6,2 %) yetdi. Hisobot davrida 13,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rmini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Sirdaryo viloyati jahoning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Qozog'istonda (24,3 %), Rossiya Federatsiyasida (24,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (15,2 %), Turkmanistonda (5,6 %) va Afg'oniston (7,0 %) qayd etilgan.

	Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulush
	Qozog'iston	53,8	7,4	46,4	24,3
SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI BO`LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-may, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)	Rossiya Federatsiyasi	53,5	9,8	43,7	24,1
	Xitoy Xalq Respublikasi	33,7	7,3	26,4	15,2
	Turkmaniston	12,5	0,4	12,1	5,6
	Afg'oniston	15,502	15,5	0,002	7,0
	Avstriya	7,5	-	7,5	3,3
	Bangladesh	6,6	5,9	0,7	3,0
	Germaniya	7,52	0,02	7,5	3,4
	Turkiya	6,0	0,6	5,4	2,7
	Tojikiston	4,9	2,3	2,6	2,2

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (53,8 mln. AQSh dollarri), Rossiya Federatsiyasi (53,5 mln. AQSh dollarri), Xitoy Xalq Respublikasi (33,7 mln. AQSh dollarri), Turkmaniston (12,5 mln. AQSh dollarri) va Afg'oniston (15,5 mln. AQSh dollarri). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**SIRDARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
may, mln. AQSh
dollar'i, ulushi,
% da)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Qozog'iston	9,0	57,1	53,8
eksport	6,6	17,9	7,4
import	2,4	39,2	46,4
saldo	2,8	-21,3	-39,0
Rossiya Federatsiyasi	18,9	37,3	53,5
eksport	12,4	7,0	9,8
import	6,5	34,9	43,7
saldo	6,1	-27,9	-33,9
Xitoy Xalq Respublikasi	41,5	73,2	33,7
eksport	15,4	13,1	7,3
import	26,1	60,1	26,4
saldo	-10,7	-53,0	-19,1
Turkmaniston	0,0	6,7	12,5
eksport	0,0	0,0	0,4
import	-	6,7	12,1
saldo	0,0	-6,7	-11,7
Afg'oniston	1,4	1,8	11,9
eksport	1,4	1,8	15,5
import	0,0	-	0,0
saldo	1,4	1,8	11,9
Avstriya	0,0	3,9	7,6
eksport	-	-	-
import	0,0	3,9	7,6
saldo	0,0	-3,9	-7,6
Bangladesh	-	-	6,6
eksport	-	-	5,9
import	-	-	0,7
saldo	-	-	5,2
Germaniya	1,3	1,5	7,5

**SIRDARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-may, mln. AQSh
dollar'i, ulushi,
% da)**


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
eksport	0,0	-	0,0
import	1,3	1,5	7,5
saldo	-1,3	-1,5	-7,5
Turkiya	6,5	8,5	5,3
eksport	4,2	2,0	0,5
import	3,9	6,5	4,8
saldo	0,3	-4,5	-4,3
Tojikiston	0,9	0,7	3,6
eksport	0,9	0,8	1,2
import	0,0	0,5	2,4
saldo	0,9	0,3	-1,2
Koreya Respublikasi	5,8	7,5	3,6
eksport	0,0	0,0	0,0
import	5,8	7,5	3,6
saldo	-5,8	-7,5	-3,6
Qirg'izston	0,9	0,9	1,9
eksport	0,5	0,3	0,4
import	0,4	0,6	1,5
saldo	0,1	-0,3	-1,1
Litva	0,6	1,9	1,8
eksport	-	-	-
import	0,6	1,9	1,8
saldo	-0,6	-1,9	-1,8
Ukraina	0,8	3,2	2,1
eksport	0,7	1,6	1,0
import	0,1	2,6	1,1
saldo	0,6	-1,0	-0,1
Ekvador	-	-	0,9
eksport	-	-	-

**SIRDARYO
VILOYATI
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
may, mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
import	-	-	0,9
saldo	-	-	-0,9
Fransiya	0,1	0,2	0,8
eksport	-	-	-
import	0,1	0,2	0,8
saldo	-0,1	-0,2	-0,8
Latviya	0,1	4,3	0,6
eksport	0,0	1,8	0,0
import	0,1	2,5	0,6
saldo	-0,1	-1,3	-0,6
Pokiston	0,3	0,2	0,7
eksport	0,1	0,2	0,0
import	0,2	-	0,7
saldo	-0,1	0,2	-0,7
Eron Islom Respublikasi	6,6	3,9	0,7
eksport	5,4	3,4	0,1
import	1,2	0,5	0,6
saldo	4,2	2,9	-0,5
Vietnam	0,5	0,1	0,5
eksport	-	0,2	0,3
import	0,5	0,1	0,3
saldo	-0,5	0,1	0,0

Sirdaryo viloyatining TSA dinamikasi tahlili 2020-yil yanvar-may oylari 2019-yilga nisbatan eksport hajmlarini pasayishni ko'rsatdi, yani 2019-yilga nisbatan TSA 5,5 foizga kamaydi. Shundan eksport (3,0 % ga), import esa (6,2 % ga) pasaydi.

**SIRDARYO
VILOYATI
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI**
(yanvar-may,
mln. AQSh
dollar)



TSAning ikkidan bir qismini MDH davlatlari tashkil etib, so‘nggi yillarga nisbatan asta-sekin kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida boshqa xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarning kengayayotganidan dalolat bermoqda. Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 58,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 13,4 % ga ko’paydi.

SIRDARYO
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH
MAMLAKATLA
RI VA BOSHQA
XORIJY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-may
ming. AQSh
dollar)



SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI yanvar-may 2020-yil

Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2020-yilda MDH davlatlariga nisbatan pasaydi va jami TSAdagi ulushi 41,8 % ni tashkil etdi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar sonini eksport tarkibida tovarlar ulushi (70,2 %) ni tashkil etib, ular asosan, to'qimachilik buyumlari (14,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (48,4 %) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (3,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLATLARG
A EKSPORT
TARKIBI
(yanvar-may,
2020-yil mln.
AQSH. doll.)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollarri			Umumiylajmiga nisbatan, foyizda		
	Jami	MDH davlat- lari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlat- lari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	52,2	21,4	30,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Paxta tolasi	7,8	0,6	7,2	15,0	2,9	23,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	25,3	8,1	17,2	48,4	37,8	55,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlar	1,9	1,9	-	3,6	8,9	-
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-	-	-	-
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	1,2	1,2	-	2,3	5,6	-
Xizmatlar	0,5	0,3	0,2	1,0	1,4	0,6
Boshqalar	15,5	9,3	6,2	29,7	43,4	20,1

**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLATLARG
A TOVAR
VA
XIZMATLAR
EKSPORTININ
G O`SISH
SUR`ATLARI
(2020-yil
yanvar-may)**

Tarkibi	O'tgan yilga nisbatan, foyizda		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	97,0	75,1	121,7
shu jumladan:			
Paxta tolasi	88,8	-	82,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	134,1	56,0	364,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	146,8	144,5	326,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	103,9	103,9	-
Xizmatlar	70,7	60,6	94,2
Boshqalar	68,6	84,7	53,3


2020-yil yanvar-may oylari eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-may, %
da)**

Tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Paxta tolasi	17,6	16,3	14,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	32,7	35,7	48,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,7	2,5	3,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,2	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	2,2	2,1	2,2
Xizmatlar	2,8	1,4	1,0
Boshqalar	42,8	42,0	29,8

So‘nggi uch yilda boshqa mamlakatlarga eksport hajmi pasaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yildagi 47,0 % dan 2020-yildagi 59,0 % ga tushdi. Mos ravishda MDH mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 41,0 % ga o‘sdi.

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(2020-yil yanvar-may, ming. AQSh dollarisi)



2019-yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (29,7 %), Rossiya Federatsiyasi (18,7 %), Bangladesh (11,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,9 %), Qozog'iston (14,2 %), Tojikiston (4,5 %), Pokiston (1,3 %) va Ukraina (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 50 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

**SIRDARYO
VILOYATINING
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil yanvar-
may)**

Eksportda asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-may)



**SIRDARYO
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARIغا
AMALGA
OSHIRILGAN
EKSPORT
HAJMI VA
UMUMIY
HAJIMGA
NISBATAN, % da
(yanvar-may)**

Davlatlar	Min. AQSh dollarisi		Umumiy hajimga nisbatan, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Afg'oniston	1,8	15,5	3,4	29,7	9	1
Rossiya Federatsiyasi	7,0	9,8	13,0	18,7	3	2
Bangladesh	0,4	5,9	1,0	11,2	13	5
Xitoy Xalq Respublikasi	13,1	7,3	24,4	13,9	2	4
Qozog'iston	17,9	7,4	33,2	14,2	1	3
Tojikiston	0,8	2,3	1,5	4,5	12	6
Pokiston	0,2	0,7	0,3	1,3	16	8
Ukraina	1,6	0,9	2,9	1,9	6	7
Turkiya	2,0	0,6	3,6	1,1	7	9
Qirg'izstan	0,3	0,4	0,5	0,7	15	11
Vietnam	0,2	0,3	0,3	0,5	23	12
Turkmaniston	0,0	0,4	0,0	0,8	43	10
Gruziya	0,9	0,2	1,7	0,3	8	13
Gollandiya	0,1	0,1	0,3	0,2	18	14
Eron Islom Respublikasi	3,4	0,1	6,3	0,1	4	15
Ozarbayjan	-	0,1	-	0,1	-	16
Belarus	0,9	0,0	1,7	0,1	10	17
Hindiston	0,0	0,0	0,0	0,1	24	18
Bolgariya	0,2	0,0	0,5	0,1	14	19
Germaniya	0,0	0,0	0,0	0,0	31	20

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (yanvar-may, ming. AQSh dollarri)



Meva va rezavorlar

332,2 t
419,8 ming.
AQSh. dollari



Uzum

461,4 t
378,8 ming.
AQSh. dollari



Yeryong'cq

174,5 t.
213,8 ming.
AQSh. dollari



Sabzavotlar

25130,0 t.
5 794,9 ming.
AQSh. dollari

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yil umumiyl eksportdag‘ meva va sabzavotlarning ulushi 18,0 % ni tashkil etdi. Meva-sabzavot eksporti qiymatda eng ko‘p Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri kelib (jami meva-sabzavot eksportidan 39,4 %), natural ko‘rinishida esa 18,7 ming tonnani tashkil etadi.

Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, foyizda	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, foyizda
Qozog‘iston	21,4	12,8	71,7	18,7	3,7	39,4
Rossiya	0,5	0,2	1,0	3,7	2,3	24,5
Afg‘oniston	0,3	0,4	3,0	2,0	1,0	10,6
Pokiston	0,3	0,2	1,3	0,8	0,7	7,4
Tojikiston	0,0	0,0	0,1	1,5	0,9	9,6

*-qiymat ifodasidan

SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-may)

Viloyatda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so‘nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 169,6 mln. AQSh dollarni (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 93,8 %) tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va uskunalar (37,8 %), hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (28,0 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (2,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tarkibi	mln. AQSh dollarri			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	169,6	107,6	62,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDA N IMPORTNING O‘SISH DINAMIKASI (2020-yil yanvar-may)	Oziq-ovqat mahsulotlari	32,2	28,8	3,4	18,9	26,8
	Kimyo mahsulotlari va buyumlari	47,5	37,4	10,1	28,0	34,8
	Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,0	3,8	0,2	2,4	3,5
	Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	4,1	1,5	2,6	2,4	1,4
	Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	0,3	0,2	0,2	0,2	0,3

Mashina va asbob-uskunalar	64,1	26,4	37,7	37,8	24,5	60,8
Xizmatlar	0,0	-	0,0	-	0,0	-
Boshqalar	17,4	9,5	7,8	10,3	8,8	12,6

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va asbob-uskunalar (24,5 %), shuningdek kimyo mahsulotlari (34,0 %) oziq-ovqat mahsulotlari (26,8 %), boshqalar (8,8 %). Boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (60,8 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (16,3 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Tarkibi	2019-yilga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	93,8	126,2	64,8
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	152,4	165,4	91,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	125,7	246,3	44,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	23,3	22,4	3359,1
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	91,9	84,1	97,3
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	66,6	110,9	50,5
Mashina va asbob-uskunalar	76,6	95,0	67,5
Xizmatlar	152,9	-	152,9
Boshqalar	106,1	161,0	75,0


**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLAR
IMPORTI
(2020-yil yanvar-
may, % da)**

2020-yil yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan kimyo mahsulotlari va buyumlari importining ulushi 20,9 % dan 28,0 % gacha o‘sdi.

**IMPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-may %
da)**

	Tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami		100,0	100,0	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,6	11,6	19,0	
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	25,2	20,9	28,0	
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,9	9,4	2,3	
Qora metallar va ulardan yasalgan buyumlar	1,7	2,5	2,4	
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar	0,6	0,3	0,2	
Mashina va asbob-uskunalar	46,7	46,3	37,8	
Xizmatlar	-	-	-	
Boshqalar	16,3	9,0	10,3	

**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLAT-
LARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-may,
ming. AQSh
dolları,
ulushi, % da)**




Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasini 25,7 % ulushi bilan ortda qoldirgan holda Qozog‘iston umumiy import hajmida 27,3 % ulushi bilan birinchi o‘rinni egalladi.

**ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARDAN
AMALGA
OSHIRILGAN
IMPORT
HAJMI VA
UMUMIY
HAJIMGA
NISBATAN, % da
(yanvar-may)**

Davlatlar	mln. AQSH dollarri		Umumiy hajimga nisbatan, %da		o‘rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Qozog‘iston	39,2	46,4	21,6	27,3	2	1
Rossiya Federatsiyasi	34,9	43,7	19,3	25,7	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	60,1	26,4	33,2	15,5	1	3
Turkmaniston	6,7	12,1	3,7	7,1	4	4
Avstriya	3,9	7,5	2,2	4,5	6	5
Germaniya	1,5	7,5	0,8	4,4	11	6
Turkiya	6,5	5,4	3,6	3,2	7	7
Koreya Respublikasi	7,5	3,6	4,1	2,1	5	8
Tojikiston	0,5	2,6	0,3	1,5	22	9
Litva	1,9	1,8	1,1	1,1	9	10
Qirg‘izston	0,6	1,5	0,3	1,0	19	11
Ekvador	-	0,9	-	0,6	-	12
Ukraina	2,6	1,1	1,4	0,7	8	13
Fransiya	0,2	0,8	0,2	0,6	24	14
Latviya	2,5	0,8	1,3	0,5	12	15
Bangladesh	0,0	0,7	0,0	0,4	48	16
Eron Islom Respublikasi	0,5	0,6	0,3	0,3	21	17
Norvegiya	0,2	0,4	0,1	0,2	29	18
Vengriya	0,2	0,4	0,1	0,3	26	19
Chexiya	0,0	0,3	-	0,2	42	20

**VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-may,
da)**



Umuman olganda, 2020-yil yanvar-may oylariga ko'ra jami 41 ta davlatlardan Sirdaryo viloyatida tovar va xizmatlar import qilingan.

Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Avstriya, Germaniya va Turkiya hamkor-davlatlaridan jami import hajmi 152,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa import hajmining 90,0 % ni tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 225-19-70